

---

## Ijtimoiy himoyaga muhtoj, ishsiz xotin-qizlar shahrimizdagi bo'sh ish o'rinlarini taklif qilayotgan korxonalar faoliyati bilan yaqindan tanishdilar

Mamlakatimizda joriy etilgan "Ayollar daftari" orqali xotin-qizlardagi muammolarning yechimi topilmoqda. Shahrimizda ham mazkur daftarga 5975 nafar xotin-qizlar kiritilgan bo'lib, ularning 746 nafarlari ijtimoiy himoyaga muhtoj, ishsiz xotin-qizlardir.

Kuni kecha Oila va xotin-qizlar bo'limi tomonidan 1-sektor hududidagi 20 ta mahalla fuqarolar yig'inlarida yil boshida "Ayollar daftari"ga kiritilgan 123 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz xotin-qizlarni ish bilan band qilish maqsadida sanoat korxonalari hamda tikuvchilik sexlariga olib borildi.

Shahrimizdagi "Gofra Mahsulotlari", "Uniongroup Fer Tex" va "Yagona stil" MChJlariga tashrif buyurgan ishsiz ayollar korxonalarining ish tartibi, faoliyati, imkoniyatlari bilan tanishtirildi.

Hozirda mazkur korxonalarda ishlash istagini bildirgan xotin-qizlar bilan mehnat shartnomalari tuzilmoqda.

2022-08-19 17:25:33